

ISSN: 2181-4031

DOI Journal 10.56017/2181-4031

JOFS

5-СОН

МАЙ, 2023

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

Journal of Fundamental Studies

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ



IMFAKTOR
PAGES



ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 5-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

ТОШКЕНТ – 2023

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

№ 5 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2023-5>

Бош муҳаррир:

Тураев Б. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Таҳририят аъзолари:

Кенжабаев А. – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Саттаров О. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Исҳоқов М. – тарих фанлари доктори, профессор

Абдуҳалимов Б. – тарих фанлари доктори, профессор

Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент

Мадумаров Т. – юридик фанлар доктори, профессор

Қодиров Б. – юридик фанлар доктори, доцент

Қиличев Х. – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори

Баҳодиров Р. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Саифназаров И. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Идиоров У. – сиёсий фанлар доктори, профессор

Абдуллаев Н. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Сатторов А. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Умаров А. – социология фанлари доктори, профессор

Матибаев Т. – социология фанлари доктори, профессор

Каюмов К. – социология фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-ўй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

Фалсафа фанлари

QODIROV G'lobjon Tolibjon o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
ofitseri*

MAMAJONOV Ibrohim Olimjon o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
kursanti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7989932>

OFITSERLIK MADANIYATI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlari ya'ni umumiy madaniyat tushunchasi yoritib keltirilgan. Shu bilan birga zamonaviy ofitser uchun eng zarur bo'lgan fazilat ofitserlik madaniyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ofitser, xalq, ma'naviyat, madaniyat, umumiy madaniyat, jamiyat, axloq.

КАДЫРОВ Глобжон Талибжон оглы

*Академия Вооруженных Сил Республики Узбекистан
офицер*

МАМАЖОНОВ Ибрагим Олимжан оглы

*Академия Вооруженных Сил Республики Узбекистан
курсант*

ОФИЦЕРСКАЯ КУЛЬТУРА

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются морально-нравственные качества военнослужащих, то есть понятие общей культуры. При этом была проанализирована офицерская культура, самое необходимое качество для современного офицера.

Ключевые слова: офицер, народ, духовность, культура, общая культура, общество, нравственность.

KADYROV Globjon Talibjon ogly
Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan
officer

MAMAZHONOV Ibrahim Alimzhan ogly
Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan
cadet

OFFICER CULTURE

ANNOTATION

This article highlights the moral and moral qualities of military personnel, that is, the concept of general culture. At the same time, officer culture, the most necessary quality for a modern officer, was analyzed.

Key words: officer, people, spirituality, culture, general culture, society, morality.

Mustaqillikni mustahkamlab borgan sari milliy-axloqiy qadriyatlarga tayanish, ularni zamon talablari darajasida yanada boyitish va rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlar har qachongidanda kuchayib boraveradi.

Bugungi kunda qonunlar asosida yashash xalqning, ma'naviy-ruhiy ehtiyojiga aylanishida bunday o'zgarishlar katta ahamiyatga molikdir. Eng asosiysi, odamlarning fikri, dunyoqarashi o'zgarimoqda. Davlat va hokimiyat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladigan, ularning faoliyatini ongli ravishda kuzatib boradigan, o'z hayotining bunyodkori bo'lgan yangi, zamonaviy, fuqaroviy pozitsiyasiga ega, ma'naviyati yuksak ofitserlarga aylanib bormoqda.

Islom Karimov, "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalaga xushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ularning oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin [1]", deb ayni haqiqatni ta'kidlagan edilar.

Demak, ma'naviy hayot inson va jamiyatning turmushi va taraqqiyotning muhim tomonlarini tashkil etadiki, uning mazmunida insoniylik namoyon bo'ladi. Shu bois, mamlakatimiz prezidenti Sh. Mirziyoyev o'z asarlarida "Mening nazarimda, jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir [2]"

Axloqiy sifatlar tizimini belgilab olish harbiy xizmatchi shaxsi sifatida uning ma'naviy-axloqiy portretini shakllantirishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Ma'naviy-axloqiy sifatlarning barqarorligi va mazmundorligi ofitserning ma'nan sog'ligini, axloqiy sharoitlarda va vaziyatlarda qanday yo'l tutishini belgilaydi. Harbiy xizmatchi faoliyatida amal qiladigan bir qator masalalarga to'xtalamiz.

Harbiy xizmatchining ma'naviy-axloqiy sifatlarining eng muhimlariga uning umumiy madaniyati kiradi. Harbiy sohani san'atkorona o'zlashtirib olish bilan birgalikda qisqa muddatlar mobaynida harbiy texnika va zamonaviy qurollardan foydalanishni o'rganib olishlari lozim, vaziyatni, muhitni, o'zining imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi va (shaxsiy aqliy, emotsional) his-tuyg'ulari va jismoniy kuchlaridan foydalangan holda mumkin qadar yuksak samaradorlikka erishish kerak bo'ladi. Shaxs madaniyatining muhim komponenti – bu umumiy, odamlarni ijtimoiy birlashtiruvchi, davlat va jamoani, masalan, hozirgi vaqtda bizning yurtimizda ta'lim orqali umumilmiy bilimlar shakllantirilmoqda. Umumiy madaniyat o'ziga shuningdek, umumtexnik bilimlarni, malaka va ko'nikmalarni ham kiritadi, bular jamiyatning barcha a'zolari uchun xulq-atvor madaniyati yuksak bo'lishi uchun muhim hisoblanadi.

Shaxsning umumiy madaniyati professional madaniyat bilan o‘zaro aloqadorlikda ofitser shaxsining madaniyatini tashkil etadi va uning sifatiy-miqdoriy o‘sib borish darajasini, insonning «mavjud kuchlari»ni, ya’ni intellektual, emotsional, irodaviy va jismoniy imkoniyatlarini harbiy xizmatchi sifatida o‘zining kasbiy faoliyatida va o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Bularning barchasi shaxsning o‘ziga xos jihatlarida shakllanadi va rivojlanadi, ya’ni tarbiyalanishi, uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Umumiy madaniyat o‘ziga bir qator tarixiy, falsafiy, ma’naviy, axloqiy, psixologik va politologik, huquqiy ilmlarni, jahon va vatan adabiyoti, musiqani, rang tasvirni, teatrni va boshqalarni qamrab oladi, haqiqiy ma’naviy qadriyatlarni yasama, nohaqiqiy qadriyatlardan farqlay oladilar.

Bugungi kunda harbiy xizmatchi madaniyatining muhim jihatlariga texnika, kompyuter axborot vositalaridan foydalanish bo‘yicha savodxonlik, muomala madaniyati, muloqot qila bilish, zamontalab tafakkur yurita olish, xulq-atvori va boshqalar kiradi. Bu borada fransuz faylasufi Gelvetsiy o‘zining “Aql to‘g‘risida” traktatida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Noma’lum yo‘lda hech qachon qat’iy qadam tashlab yurib bo‘lmaydi, chunki uning juda ko‘p o‘nqir-cho‘nqirliklari bo‘ladi. Qat’iylik va aqlning kuchi ulardan o‘tish mumkinligini ta’minlaydi”.

Shaxsning umumiy madaniyati – bu harbiy xizmatchi shaxsi hayotiy faoliyatining fundamenti hisoblanadi.

Fransiya Prezidenti Sharl de Gol quyida bildirgan so‘zlarida: “Aql o‘z kuchini turli tumanliklarda namoyon qiladi, bularsiz hech bir kasbni muhim malaka va ko‘nikmalarni egallab bo‘lmaydi. Qo‘mondonlik qilishning haqiqiy maktabi umumiy madaniyat hisoblanadi. Shu paytgacha biror bir buyuk sarkarda o‘zining san’atida insoniyatning aqliy xazinasidan olmagan bo‘lmagan. Iskandar Maqduniy g‘alabalarining asosida doimo Arastu dahosi yotganini ko‘ramiz” degan.

Shunday qilib, harbiy xizmatchining umumiy madaniyati o‘zida ma’naviy-axloqiy sifatlarning ko‘pdan-ko‘p komponentlaridan tashkil topgan bo‘lib, ularda ofitser «mavjud kuchlar»ning faoliyatining turli sohalarida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Odob – kishining jamoada o‘zini tutishi, odamlar bilan muomala qilishi, turmush tarzi, bo‘sh vaqtini tashkil etishi, ichki va tashqi olami qanday bo‘lishi lozimligiga oid qoidalarni (masalan, ornomus, sharm-hayo, kamtarinlik, mardlik, xushmuomalalik) o‘z ichiga oladi. Odob – insonni ma’naviy kamolotga yetkazuvchi jarayon, u yoshlikdan shakllanib boradi. Odobning darajasi kengayib boradi. U kishi faoliyatini, ma’naviy yetuklikligi, ma’naviyatini belgilaydigan mezon. Odob «tarbiyali» ma’noni ham anglatadi. U ta’lim-tarbiya mahsuli, aql suyanchig‘i, barcha fazilatlar ibtidosi hisoblanadi. Insonda ikkovi mavjud bo‘lsagina, u kamol topadi. Aql va odob bir-biriga bog‘liq, mushtarakdirlar. «Hikmatnoma»da «Adab ikki xildir: hikmat adabi va xizmat adabi. Hikmat adabi poklik va to‘g‘ri yo‘lga yetaklaydi, xizmat adabi esa badavlatlik va obro‘ga yetkazadi», deyiladi.

Harbiy xizmatchining vijdoni o‘zining xulq-atvori uchun axloqiy mas’uliyatni his qilishida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy ofitser zamon talabi darajasida yuksak, ma’nan boy, kuchli bo‘lishi kerak. Uning hayoti uch o‘lchovli bo‘ladi. U – o‘tmish bilan, o‘tmish avlodlarning g‘oyalari, tajribasi, his tuyg‘ulari va odoblari bilan yashaydi. U kelajakda yashaydi – avlodlariga o‘z ishi, uy, hayol va orzularini qoldiradi.

Zamonaviy ofitser ma’naviy-axloqiy jihatdan yuksak darajada komil bo‘lsagina Prezidentimiz tomonidan qo‘yilgan har qanday vazifalarni bajarishga qodir bo‘ladi. Buning uchun u insoniyatga xos bo‘lgan ma’naviy-axloqiy fazilatlarini o‘ziga singdirib olishi hamda mavjud o‘zlashtirib olgan barcha ijobiy fazilatlarga amal qilishi bilan boshqa harbiy xizmatchilarga namuna ko‘rsatishga erishmog‘i lozim. Bizning ma’naviy-axloqiy jihatdan yuksakligimiz buyuk “Avesto”dan boshlanadi. Uning boshidan oxirigacha qizil ip singari o‘tgan “Ezgu o‘y, ezgu so‘z, ezgu amal” – o‘gitida, islom dinining asosi bo‘lmish ma’naviy-axloqiy hadislarni har bir o‘zbek xonadonida tarbiyaning asosi, tayanchi bo‘lganligi bilan biz doimo o‘zligimizni, g‘ururimizni saqlay olganmiz va har qanday bosqinlarni yengib o‘tishda ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan ma’naviyat va axloq yurt farzandlarini birlashtiruvchi va erkka, ozodlikka, yangidan-yangi bunyodkorlik asosida yuksalish ishlariga kuch-quvvat berib keladi.

“Avesto”da ma’naviy yuksaklikka da’vat etish, odamlar o’rtasida mehr-oqibat tuyg’ularini mustahkamlashga oid fikrlar, ezgu g’oyalari, ma’budlar sha’niga aytilgan madhiyalar, duolar ham o’z ifodasini topgan. Dualizm, ruh va moddiy hayotning o’zaro uyg’unligini tan olishga asoslangan zardushtiylik diniga ko’ra, butun olam yorug’lik va zulmat, hayot va o’lim, tana va jon, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va tobelik singari qarama-qarshi hodisalar o’rtasidagi azaliy va abadiy kurash asosiga qurilgan. Mazkur kurashning faol ishtirokchisi bo’lish uchun esa yaxshilik xudosi Axura Mazdaga ergashib yomonlik tangrisi Ahrimanga qarshi kurashda uni qo’llab-quvvatlash yo’lidan borilgan-ki, uning natijasida doimo erkin, ozod, farovon va baxtli hayot kechirishgan. VII-VIII asrlarga kelib O’rta Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi va islom dinining keng tarqalishi bilan ungacha amal qilgan zardo’shtiylik diniva uning asosiy kitobi bo’lgan “Avesto”ni o’rganish va unga amal qilish taqiqlangan. Bizning kelajagimizni yangi tarzda barpo etishimiz uchun esa “Avesto”da bitilgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini bilishimiz va amal qilishimiz muhim hisoblanadi.

Islom ta’limoti asosida yurtimizda aholining ma’naviy-axloqiy jihatlarini yanada boyib bordi. Bularni yanada yuksak darajaga ko’tirishini XIV-XV asrlarga kelib Amir Temurning vatanparvarona fidoyiligi tufayli mo’g’ullar zulmidan va hukmronligidan qutulib, mustaqil saltanat barpo etildi. Mana shundan boshlab Markaziy Osiyoning madaniy hayotida keskin yuksalish sodir bo’laboshladi. Uning davlat arbobi va buyuk sarkardaligi borasida hozirgi kunlarga jahonning yetuk tarixchi va olimlari tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. U o’zidan qoldirgan meroslarini dunyoning barcha davlatlarining fuqarolari yurtimizga har yili millionlab tashrif buyurib, o’z ko’zlari bilan ko’rib ulardan bahramand bo’lish uchun sayyoh sifatida kelishadi.

Temuriylar davri tarbiyasini olgan va madaniyati, axloqi asosida tarbiya ko’rgan A.Navoiyga Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: “Agar bu ulug’ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir [3]”, deb bejiz yuksak ta’rif bermagan.

Alisher Navoiy o’zining “Mahbub ul-qulub” asarida insonlarga xos bo’lgan 72 ta fazilatlarini va 46 ta salbiy illatlarni qayd qilish bilan birgalikda ijobiy fazilatlar bilan qurollanib yashashga, salbiy illatlardan esa xolos bo’lishga da’vat qiladi. U insonlarga xos bo’lgan sifatlarini ikkiga guruhga bo’lib – ijobiy va salbiy jihatlariga ajratadi.

Ijobiy sifatlar – tavba, muruvvat, vafo, hayo, iymon, hilm (muloyim tabiatlilik), jon do’shti bo’la olishlik, sabrlilik, tavoze’, odob saqlash, xokisorlik, qanoat va boshqalar.

Salbiy jihatlar – xasislik, nokaslik, birovlarni kamsitish, yengiltaklik, razillik, ta’magirlik, takabburlik, nafs ketidan tushmoq, erkaklarning o’z-o’zini ko’z-ko’z qilish uchun yasanishi, o’ziga bino qo’ymoq, shahvoniy nafsga berilmoq, xudbinlik, himmatsizlik, maqtanchoqlik, isrofgarchilik, chaqimchilik, bangilik, ikkiyuzlamachilik, hasad, ichkilikbozlik, nashavandlik, g’iybatchilik, bachkanalik va hokozolar.

Alisher Navoiyning ma’naviy-axloqiy boradigi ishlarini yanada boyitib borgan Bobir Mirzo, o’zining “Boburnoma” asarida ijobiy sifatlar – pokiza e’tiqodlilik, ravon savodxonlik, saxovatlilik, xushxulqlilik, shirin zabonlik, shu’jo va mardonalik, xushsuhbatlilik, merganlik, odillik, hayolilik, shatranj (shohmot)ni yaxshi o’ynash, qush ilmini xub (yaxshi) bilish, musiqa ilmidan boxabarlik, saxiylik, siyoh ilmi (xusnixat)ni ko’b bilish, odmi va asillik, tolibi ilmlik, lug’ati boylik, adolatpeshalik, xushta’blik, fazilatlilik, she’rxonlik, g’ijjakni pokiza chalmoq, qilichga mardonalik, hikoyati shirinlik va hokozolar.

Salbiy jihatlar – mushtazanlik (mushtlashish), pursharo’lik – g’avg’o chiqaruvchilik, yemoqda betakallufchilik, benamozlik, ro’za tutmaslik, zolimlik, kofirvashlik (gunoh ishlarga moyillik), ichi torlik, kam xafsalalik, fitnachilik, baxillik, sovuq yuzlilik, qattiq so’zlilik, o’qimaganlik, omilik, ko’p ichish, yuraksizlik, badkalomlik (yomon so’zlarni ko’p aytish), shurb (ichkilikbozlik), va zino bilan mashg’ul bo’lish, befahmlik, ayshga mashg’ullik, padarkushlik, tanballik, kamxulqlilik, berahmlik, sharirlik (odamlarga zarar yetkazish, yomonlik), nozuk maraklik, uyda bemajlislik (maslahatlarga quloq solmaslik), besuhbatlik va hokozolar haqida o’z fikrlarini bayon etadi.

Mazkur donishmand boblarimizning bizga qoldirgan qadriyatlarini egallash bilangina boshqalarning qalbini egallash mumkinligini aslo unutish mumkin emas.

Shavkat Mirziyoyev «Bugun ma’rifatga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir» nomli nutqida “Dunyo shiddat bilan o’zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo’layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo’lishga undaydi [4]” degan so’zlarining mazmun-mohiyati harbiy xizmatchilar o’rtasida ma’naviy-targ’ibot sohasidagi ishlarni olib borishning samaradorligini oshirishga yo’naltirilgan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Har bir insonni, ofitserni o’z kasbiga bo’lgan muhabbati – har qanday sharoitda ham yuksak ma’naviyat, mustahkam axloq va kuchli iroda orqali mutlaq haqiqatga, hayotning mazmun-mohiyatini anglab yetishiga olib keladi.

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES

1. Каримов И.А Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият. 2008. – 23 б.
2. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2022. – 261 б.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: “Маънавият”, 2008 й. – 47 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. –Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 213 б.
5. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2022. – 404 б.
6. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. –Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
7. Каримов И.А Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият. 2008. – 176 б.
8. <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/3353>
9. <https://wordlyknowledge.uz/index.php/ITJM/article/view/969>
10. <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/5397>

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 5-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

«Фундаментал тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz